



**“ULTIMA RATIO” PRINSIPINING NAZARIY ASOSLARI
VA JINOYAT HUQUQIDAGI O‘RNI**

Ibroximov Saidakbar Ilxom o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy
odil sudlov fakulteti 4-bosqich talabasi

ORCID: 0009-0000-1175-2062

ibrohimsaid010@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola jinoyat huquqida “ultima ratio” prinsipi — ya’ni jinoyat qonunchiligi faqat eng so‘nggi chora sifatida qo‘llanilishi lozimligi g‘oyasini o‘rganadi. Ushbu prinsip jinoyat qonunlari qo‘llanilishining chegaralarini belgilab, ortiqcha kriminalizatsiya va jazolashdan saqlanishni maqsad qiladi. Maqolada prinsipning tarixiy shakllanishi, zamonaviy huquqiy tizimlardagi qo‘llanilishi hamda prinsipning nazariy yondashuvi tahlil qilinadi. Shuningdek, prinsipning huquqda tutgan o‘rni, subsidiarlik va proporsionallik tamoyillari bilan aloqasi ko‘rib chiqiladi. Maqola jinoyat huquqining legitimligi va samaradorligini ta’minlashda “ultima ratio” prinsipining ahamiyati xorij olimlarining fikrlari orqali yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ultima ratio, qonun, prinsip, huquq, proporsionallik, jazo tayinlash, jinoyat, jinoyatchilik,

Jinoyatchilikka qarshi kurashishda jinoyat qonunchiligining umume’tirof etilgan prinsiplarga mos bo‘lishi bugungi kun dunyo tendensiyasida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon miqyosidagi globallashuv jarayonining kuchayishi jinoyatchilikka qarshi



kurashish sohasida ham qonunchilikni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. BMTning 137 ta davlatdagi jinoyatchilik darajasi tahliliga ko'ra, xalqaro miqyosda har 100 ming nafar aholiga o'rtacha 44,74 ta jinoyat to'g'ri keladi¹. Kambag'allik va ishsizlikning yuqoriligi jinoyatchilikning oshib ketishiga sabab qilib ko'rsatilsa ham, iqtisodiy sohaning rivojlanganligi jinoyatchilikni kamaytirishga olib kelmayotganligi, jinoyat qonunchiligining jamiyatdagi jinoyatchilik darajasiga mos ravishda isloh qilinmaganligi ham jinoyatchilik darajasiga ta'sir qilishi kuzatilmoqda. Bu esa jinoyat qonunchiligini yaxshilash, jinoyatchilikka qarshi kurashishning prinsipial qoidalarini belgilash va ularga rioya qilinishini ta'minlash dolzarb ekanligidan darak beradi.

Shaxsni qilgan qilmishidan to'g'ri xulosa chiqarishi, to'g'ri yo'lga o'tishi va unda qonunga nisbatan itoatkor xulq-atvorni shakllantirish uchun jazo tayinlash institutining roli muhimdir. Jinoyat uchun jazo tayinlashda "maqsad – vosita – natija" asosiy qoida bo'lib xizmat qiladi. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda jinoyat qonunchiligini takomillashtirish, jinoyat sodir etgan shaxslar javobgarligining muqarrarligini ta'minlash, aybdor shaxslarni o'zboshimchalik bilan jazolanilishiga yo'l qo'ymaslik, eng muhimi esa jinoiy jazolarning haddan ziyoda ortiqcha bo'lib ketmasligi va aybdorga nisbatan asossiz ravishda yengil yoki o'ta og'ir jazo tayinlamaslik, javobgar shaxslarga nisbatan insonparvar munosabatni shakllantirish, bu boradagi xalqaro huquqning fundamental g'oyalarini, tajribalarini o'rganish va normalarini implementatsiya qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda respublika miqyosida birinchi instansiya sudlari tomonidan ko'rilayotgan jinoyat ishlari va jazo tayinlangan shaxslar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Xususan, 2023-yilda 73 797 nafar shaxsga umumiy 58 418 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilgan. 2024-yilda esa bu ko'rsatkich 77 995 nafar shaxsga nisbatan umumiy 61 481 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilganligini ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda, 2023-yilda 17 391 ta shaxsga nisbatan, 2024-yilda esa 20 655 nafar shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish

¹ Dunyo aholisi haqida umumiy ma'lumot saytining ma'lumotlar bazasi [The world population review]. 2025. Available at: <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/crime-rate-by-country>.



jazosi tayinlagan². Jinoyat ishlarining ko‘rilish darajasining va jazo tayinlanayotgan shaxslar sonini o‘shib borishi jinoyat qonunida jazo tayinlash, jazoni belgilash kabi tushunchalarning fundamental jihatlarini qayta ko‘rib chiqish va ularni takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Shaxsga nisbatan jinoiy jazolarni keragidan ortiqcha ko‘p tayinlamaslik va adolatli jazo tayinlash institutini takomillashtirilishi quyidagilarda aks etadi:

birinchidan, jazo tayinlash uchun prinsipial normalarni qo‘llash hamda ushbu prinsiplarni huquqiy funksiyalarini takomillashtirish masalalariga oid tadqiqotlar yetarli emas va bu borada izlanish qilgan tadqiqotchilar ham sanoqli hisoblanadi;

ikkinchidan, amaliyotda shaxsga nisbatan jazo tayinlashda zarur hisoblangan me‘yoriy qoidalarining xilma-xilligi, yetarli darajada shakllanmaganligi va qanday holatlarda tayinlangan jazo haddan tashqari ko‘p ekanligini belgilovchi ideal o‘lchovlarning mavjud emasligi;

uchinchidan, jazoning tayinlanishida va ijro etilishida shaxslarning ijtimoiy, ijtimoiy-pedagogik va psixologik holatiga diqqat qaratilmasdan, balki ularga nisbatan repressiv kayfiyatning saqlanib qolishinishi;

to‘rtinchidan, xorij mamlakatlarida jinoyat huquqini fundamental-prinsipial normalarini takomillashtirish bo‘yicha tamoyillar, huquqiy tushunchalar va nazariy qarashlar rivojlanmoqda va amaliyotda keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda ushbu sohaga oida islohotlar va rejalar ishlab chiqilayotganligi sir emas albatta va bu islohotlar albatta jinoyat sodir etgan shaxslarga adolatli jazo tayinlash tizimini isloh qilishga, tayinlangan jazolarni me‘yordan oshib ketmasligiga va jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning

² O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan taqdim etilgan jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarning 2024-yil asosiy ko‘rsatkichlari. Available at: <https://stat.sud.uz/assets/uploads/criminal/pdf/criminal-2024-full.pdf>.



faoliyatini inson manfaatlarini, qadr-qimmatini va huquqlarini himoya qilishga yo'naltirish³ga qaratilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 26-moddasida hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yohud jazoga duchor etilmasligi, 30-moddasida esa hech kim rasmiy e'lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum qilinishi mumkin emasligi, hech kim ayni bir jinoyati uchun takroran hukm qilinishi mumkin emasligiga oid huquqiy normalar mustahkamlandi.

“Ultima ratio” prinsipining ilmiy-nazariy ta'rifi va mohiyati

Ma'lumki huquq sohasida prinsip – bu axloqiy va qonuniy harakatlarini belgilovchi qat'iy normalar yig'indisi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi ham o'zining bir qator qat'iy yo'naltiruvchi prinsiplariga ega. Lekin, bugungi kungacha milliy jinoyat huquqiga oid qonun hujjatlarida “ultima ratio” atamasi qo'llanilmagan.

“Ultima ratio” bu xalqaro darajadagi konstitutsiyaviy tenglik normasini ifoda etuvchi qoida hisoblanadi. Ultima ratio atamasi uzoq tarixga ega. Ba'zi manbalar Fransiya qiroli **Lyudovik XIII davrida bosh vazir Kardinal Rishle** tomonidan XVI asrning boshlarida bu ibora ishlatilgan bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi, lekin bunga oid aniq dalillar mavjud emas. Aniq ma'lumotga ko'ra, ultima ratio atamasi birinchi marta Fransiya **qiroli Lyudovik XIV** (1643–1715) davrida keng qo'llanilgan. U jangovar o'q-otar to'p(pushka)larga “*ultima ratio regum*” jumlasini yozdirgan va bu “qirolning so'nggi chorasi” deya ifoda etilgan. Ya'ni, diplomatik sa'y-harakatlar muvaffaqiyatsiz bo'lganda, qirolni nizolarni hal qilish uchun **harbiy kuchga** murojaat qilishini anglatgan⁴.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida” gi PF-158-son Farmoning 1-ilovasi 87-bandii/Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.

⁴ Rudolf Wendt. “Ultima Ratio” tamoyili va mutanosiblik prinsipi [The principle of “ultima ratio”and/or the principle of proportionality]. Oñati Socio-Legal Series Volume 3 No. 1 (2013), p. 81-94 at 84. Available at: <https://shorturl.at/7OC6I>.



Ushbu atama lotincha *ultimus* – “oxirgi”, eng so‘nggi”, *ratio* – “metod”, “usul”, “chora” degan ma’nolarni anglatadi va an’anaviy tarzda o‘zbek tiliga muammolarni hal qilishda eng so‘nggi usuli deya tarjima qilinadi.

Klassik jinoyat huquqida ultima ratio prinsipi – jinoiy jazo faqatgina oxirgi chora ekanligini va axloq yoki qonun buzilishini boshqa sohalar bilan tartibga solish imkoni bo‘lmagan taqdirda ushbu so‘nggi chora ya’ni jinoyat huquqi qo‘llanilishi kerak ekanligini ifoda etadi⁵. Ya’ni, muammoni hal qilishda barcha boshqa, axloqiy jihatdan oqilona usullar qo‘llanilib, ammo ular qoniqarli natija bermagan taqdirda jinoyat huquqi qo‘llanilishi kerakligini ifoda etadi. Bu prinsip – jinoyat-huquqiy siyosatda fuqarolik va ma’muriy huquqning barcha boshqa vositalari qo‘llanilganda yoki ulardan foydalanish samarasiz deb topilganda, jinoyat qonunlari huquqbuzarga qarshi davlatning oxirgi chorasi bo‘lishi kerakligi falsafasiga asoslanadi.

Ushbu prinsipning mohiyati shundan iboratki, jinoiy javobgarlikni ifoda etuvchi jazo tizimidan faqatgini so‘nggi chora sifatida qo‘llash zarur. Chunki, jinoyat huquqi davlat ixtiyoridagi eng qat’iy qoidalarni jamlagan huquq sohasi hisoblanadi. Bu bir tomondan jinoiy sanksiyalar juda ham o‘g‘irligini, ikkinchi tomondan ushbu sohaning majburlov funksiyasi boshqa huquq sohalariga qaraganda jiddiyroq ekanini ifoda etadi. Darhaqiqat, shaxs ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgandan keyin, uning ijtimoiy faoliyatida qat’iyan jinoyat huquqining aralashuvi kuzatiladi va bunday aralashuv jinoyat huquqi uchun universal xususiyat hisoblanadi⁶.

Jinoyat huquqi barcha huquq sohalar bilan teng ravishda qo‘llanilsa bu jinoyat huquqining tub mohiyatini yo‘qolishiga va jamiyatda salbiy repessiyasining shaklanishiga

⁵ Salayev N.S. Classical Ideas of the Ultima Ratio Principle in the Modern Criminal Law Paradigm. Excellencia: international multi-disciplinary journal of education. Volume 02, issue 07, 2024. p 282-292. p 283.

⁶ Piet Hein van Kempen. Jinoyat huquqi va inson huquqlari – kirish [Introduction – Criminal Law and Human Rights], Criminal Law and Human Rights, The International Library of Essays on Criminal Law, England/USA: Ashgate, 2017, pp. 1-23 at p.1. Available at: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2953285.



olib keladi⁷. So‘nggi yillarda jinoyat huquqi aksariyat qonun chiqaruvchilar tomonidan ortiqcha va mutlaq jazolash mexanizmiga aylangan bo‘lib, bu holat iltalyan huquq doktrinasida⁸ “total jinoyat huquqi” sifatida kinoyali tarzda nomlangan. Buni oldini olish uchun esa, muammoli vaziyatlarda jinoyat huquqining kamroq majburlov funksiyasiga ega bo‘lgan usullaridan foydalanish yoki boshqa huquq sohalari vositalaridan foydalangan holda maummoga yechim berilishi kerak va ushbu vostilar yetarli natija bermagan taqdirda jinoyat huquqi oxirgi chora sifatida yuzaga chiqishi kerak. Misol uchun, biron bir muammoga yechim bershda ma‘muriy, fuqarolik huquqi sohalari yoki oddiy profilaktik choralar yoki jinoyat huquqidagi eng minimal usullar ham muqobil yechim bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Yuqoridagi sabablarga ko‘ra, so‘nggi chora – ultima ratio prinsipiga jinoyat huquqining qabul qilishini shart bo‘lgan fundamental g‘oyasi sifatida qarashimiz mumkin.

Jinoiy odil sudlov resurslarini tejash g‘oyasi doimo qizg‘in bahslarga sabab bo‘lib kelgan. Shu sababli, ko‘p yillar davomida Yevropalik olimlar jinoyat qonunchilik doiralarini iloji boricha toraytirish zarurligi g‘oyasini himoya qilib kelishgan. Ularning fikricha, jinoiyat-huquqiy aralashuv faqat eng qimmatli manfaatlarga tahdid solingan hollarda amalga oshirilishi kerak, aks holda jinoiy qonunning ortiqcha kengayishi jamiyat uchun bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi⁹. N.S.Tagantsev¹⁰ jinoyat tushunchasini quyidagicha ifodalagan: **“Jinoyat – bu muayyan davlatda, ma‘lum bir vaqtda, norma tomonidan himoyalangan hayotiy manfaatga tajovuz qiluvchi va shunchalik muhim**

⁷ Panu Minkinen. Jinoyat huquqi doktrinasi va oxirgi chora [If Taken in Earnest]: Criminal Law Doctrine and the Last Resort]. 45 The Howard Journal 5 (2006), pp. 521-536 at p. 525. Available at: <https://shorturl.at/DzztA>.

⁸ F.Sgubbi. Jami jinoyat qonuni. Qonunsiz, haqiqatsiz, aybsiz jazo [Il diritto penale totale. Punire senza legge, senza verità, senza colpa] Italiya, Il Mulino nash., 2019, p. 88, at p. 23.

⁹ Stojanović Z. Granice, possibilities and legitimacy of criminal protection. Beograd: Savremena administracija, 1987. 115 str.; Garland D. Kultur der Kontrolle: Verbrechensbekämpfung und soziale Ordnung in der Gegenwart. Frankfurt: Campus-Verlag, 2008. P.394; Schünemann B. Das Strafrecht im Zeichen der Globalisierung. Goltdammer’s Archiv für Strafrecht, 150, no. 5 (2023): 299–313; Albrecht P.-A. Spezialprävention angesichts neuer Tätergruppen. Zeitschrift für die gesamte Strafrechtswissenschaft, 97, no. 4 (2019): 831–870.

¹⁰ Tagansev N. S. Russkoe ugovnoe pravo. V 2 chastjah. Chast' 2. — Moskva.: Yurayt, 2020. — 446 s.



deb tan olingan harakatki, davlat boshqa himoya choralarining yetarli emasligi sababli huquqbuzarga jazo bilan tahdid qiladi.”

Yuqoridagi fikrga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, zararli xatti-harakat shunchalik jiddiy bo‘lishi keraki, qilmish jinoiy odil sudlov doirasiga kira olsin¹¹. Ya’ni, bu doiraga jinoyat-protsessual qonunchilik, jazo tayinlash va ijro etish bosiqchlari kiradi va ushbu bosqichlarda ham usul va vositalar faqatgina eng oxirgi chora sifatida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq. Masalan, shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligi bu uning jazoga sazovor ekanligini belgilovchi yakuniy qoida bo‘lib xizmat qilmaydi. Agar shaxs qonunan jazoga sazovor bo‘lgan taqdirda ham jinoyat huquqi eng avvalo shaxsga nisbatan yengilroq jazo choralarini “taklif” etishi, ultima ratio tamoyilining falsafiy g‘oyasini ifoda etadi.

Aytib o‘tish kerakki, ultima rationing birinchi aksiomasi bu – qilmishni jinoyat jazosiga sazovor deb topishda jinoyat huquqi faqatgina oxirgi chora sifatida qo‘llanilishi lozim. Bunda aniq ahamiyat berilishi kerak bo‘lgan narsa – zarurat belgisidir. Ya’ni, maqsadga boshqa huquq tarmoqlari orqali erishib bo‘lmaydigan taqdirda jinoyat huquqi oxirgi chora sifatida qo‘llanilishi lozim. Ushbu tushunchani ijobiy tarzda ifoda etsak, agar huquqbuzarga nisbatan ijtimoiy faoliyatni cheklovchi vositalarni qo‘llash zarurati yuzaga kelib qolsa, ushbu vositalardan natijaga erishishi mumkin bo‘lgan eng kam aralashuvchi vosita qo‘llanilishi lozim.

Mazkur tamoyilning ikkinchi aksiomasi ultima ratio pozitiv huquqiy asos yaratadi. Ya’ni, zararli qilmish, harakat yoki harakatsizlik uning kriminalizatsiyasini oqlash uchun yetarli darajada jiddiy bo‘lishi kerak. Ushbu tushuncha boshqa huquqiy nazariyalardan biri *stricto sensu* nazariyasi bilan ham qo‘llab quvvatlanadi. *Stricto sensu* bu jinoyat huquqining proporsionallikka asoslangan tamoyili bo‘lib, “qat’iy ma’noda”, “tenglik”, “balans” degan

¹¹ Cf. European Parliament resolution of 22 May 2012 on an EU approach to criminal law (2010/2310(INI)), Official Journal of the European Union C 264 E/7, para I. 2025. European Parliament. Available at: <https://shorturl.at/PesJh>.



ma'nolarni anglatadi. *Stricto sensu* va *ultima rationi* bog'liq joyi shundan iboratki¹², *stricto sensu* – huquqni qo'llashda tenglikka e'tibor qaratishni ifoda etsa, *ultima ratio* esa jazo bilan qilmishni o'zaro mutanosibligini o'zida aks ettiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, huquqni cheklash qo'yilgan maqsad yoki talabga nisbatan mutanosib va qonuniy bo'lishi kerak.

Shu o'rinda takidlash joizki, *ultima ratio* prinsip sifatida qilmishni o'gir yoki yengilligini, qilmishni jinoyat deb topish mumkinligini, qachon shaxsga javobgarlik belgilanishi kerakligini belgilab bermaydi. D.Husakning fikriga ko'ra¹³, *ultima ratio* prinsipi qonun chiqaruvchi va jinoiy odil sudlovni amalga oshiruvchi organlarni jinoyat huquqining eng o'g'ir usullaridan faqat oxirgi chora sifatida foydalanishga chaqiradi. Shu sababdan ushbu prinsip axloqiy me'yor¹⁴ bo'lib xizmat qiladi. Dworking fikricha¹⁵, prinsiplar yoki tamoyillar axloqning biron-bir o'lchoviga bo'lgan talabni o'z ichiga oladi. Ularning doirasi va mazmuni o'zgaruvchan hamda noaniq, tuzilishi esa ochiq bo'ladi. Tamoyillar aniq natijani talab qilishdan yoki mutlaq cheklovlarni belgilashdan ko'ra, yo'nalishni ko'rsatadi. Demak, *ultima ratio* ham jinoiy odil sudlov faoliyatida yo'naltiruvchi omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Chunki, jinoiy odil sudlov tizimi faoliyatida himoya yoki qo'riqlash vositasi qilmishga mutanosib bo'lmasa yoki zarurat natijasida amalga oshirilmasa, bunday aralashuvni huquqiy xato yoki huquqiy axloqsizlik deb hisoblashimiz mumkin.

Ultima ratio prinsipi doirasidagi kriminallashtirish g'oyalari ko'plab jinoyat huquqiga jamiyatda tartibni saqlaydigan esktermal oxirgi chora sifatida qaraydigan bir qator olimlarning ilmiy faoliyatida o'z aksini topgan. Ushbu yo'nalishning mashhur tadqiqotchilaridan biri H.H.Jescheck o'z asarlarida jinoyat huquqini boshqa vositalar bilan

¹² Rudolf Wendt. "Ultima Ratio" tamoyili va mutanosiblik prinsipi [The principle of "ultima ratio" and/or the principle of proportionality]. *Oñati Socio-Legal Series* Volume 3 No. 1 (2013), p. 81-94 at 86. Available at: <https://shorturl.at/7OC6I>.

¹³ Douglas Husak. *Ultima Rationi* joriy etish: shubhali baholash [Applying Ultima Ratio: A Skeptical Assessment], *Ohio State Journal of Criminal Law* (2005), p. 535-545 at 536-540. Available at: <https://shorturl.at/nF7R1>.

¹⁴ Panu Minkinen. "Oxirgi chora": axloqiy yoki huquqiy prinsipmi? [The "Last Resort": A Moral and/or Legal Principle?], *Oñati Socio-legal Series* 1 (2013), pp. 21-30, at p. 23. Available at: <https://shorturl.at/mpbJn>.

¹⁵ Ronald M. Dworkin. *Qoidalar modeli* [The Model of Rules], 35 *The University of Chicago Law Review* new edition, 2022, pp. 14-46 at p. 22-29.



zaruriy ijtimoiy natijalarga erishish mumkin bo'lmagan taqdirdagina qo'llash kerak ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha¹⁶, jinoyat huquqini tartibga solish ultima ratio tamoyilini ifoda etadi va jinoyat huquqini qo'llashda cheklash zarurligini ifoda etadi.

Ushbu fikrlar boshqa olimlar tomonidan ham qo'llab quvvatlanadi. Masalan Britaniyalik huquqshunos olim Hart ham o'z tadqiqotlarida jinoyat huquqidan faqat oxirgi chora sifatida foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Olim o'zining "Huquq tushunchasi" nomli asarida "kriminalizatsiya faqat boshqa huquqiy harakat shakllari kerakli natijani bermagan taqdirda qo'llanilishi kerak" deb ta'kidlaydi.

Maykl Mur ham o'z asarlarida "Ultima Ratio" tamoyilini qo'llab-quvvatlaydi va "jinoyat huquqi boshqa barcha mavjud va yetarli vositalar tugatilgandan keyingina qo'llaniladigan chora bo'lishi kerak¹⁷", deb ta'kidlaydi.

G'arb kriminologi D.Husak ultima ratio prinsipi g'oyasini "jinoiy huquqiy minimalizm¹⁸" deb ataydi. Uning fikricha, ushbu nazariyaning muhim vazifasi har doim jinoyat huquqi chegaralarini belgilash masalalarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Yuqoridagi olimlaridan fikridan ma'lumki, ultima ratio prinsipi jinoyat huquqini yoki umuman olganda jinoiy odil sudlov resurslarini imkon qadar oqilona qo'llashga va ularni tejashga qaratilgan deyishimiz ham mumkin.

Ultima rationing vazifasi xatti-harakatlarni jinoiylashtirish va jinoyat protsessual qonunchilikni qo'llashga nisbatan cheklovlar o'rnatishga qaratilgan bo'lsa-da, umuman olganda jinoiy odil sudlov tizimiga qarshi chiqmaydi. Ultima ratio prinsipini "bekor qilish" g'oyasi bilan tenglashtirib bo'lmaydi va bunday qilish ham mumkin emas. Chunki, prinsip mohiyatan jinoyat qonunchiligini muayyan ahamiyatga ega ekanligi rad etmaydi. Shunday

¹⁶ H.H.Jescheck. Jinoyat huquqi bo'yicha darslik [Lehrbuch des Strafrechts: Allgemeiner Teil. 5. Auflage], Berlin, last edition by Duncker & Humblot, 2016, pp. 1029, at p. 3.

¹⁷ Moore M. Aybni belgilash. Jinoyat huquqi nazariyasi [Placing Blame: A Theory of the Criminal Law], Oxford, new edition by Clarendon Press, 2019, pp. 849, at 595-609. <https://doi.org/10.1093/acprof:oso/9780199599493.003.0014>.

¹⁸ D.Husak. Ortiqcha kriminalizatsiya qilish: jinoyat qonunining chegaralari [Overcriminalization: The Limits of the Criminal Law]. Oxford, Oxford University Press, 2009, pp. 248, at p. 231.



bo'lsa-da, ultima ratio tamoyilini to'liq muammosiz va ideal deya olmaymiz. Uning ham boshqa normativ tushunchalar kabi maummoli jihatlari ham mavjud.

Birinchidan, uning asosiy mantig'i jinoiy odil sudlov tizimining jinoyatga qarshi kurishish va jamiyatni himoya qilishdagi maqsadi bilan birga, jazoga sazovor shaxslarga yoki uning ishtirokchilariga nisbatan adolatliroq va insonparvar munosabatda bo'lishga qaratilgan. Lekin, haddan tashqari kriminallashtirish, ta'qib qilish jamiyat va shaxsga nisbatan ijtimoiy ziyon yetkazadigan bo'lsa, jinoyat huquqi yoki jinoyat protsessual huquqidan ham yetarli darajada foydalanmaslik ham shunday zarar keltirib chiqarishi mumkin. Amerikalik olim Rotmanning¹⁹ fikricha, tizimdan yetarli darajada foydalanmaslik adolatga putur yetkazadi, qonunga nisbatan norozilik va hurmatsizlikni kuchaytiradi hamda demokratiya va tenglik asoslariga korroziv ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ikkinchidan, ultima ratio tamoyilini faqat so'nggi chora sifatida qo'llanilishi kerak degan chaqirig'i jinoyat huquqining huquqbuzarlikni oldini olish va qarshi kurashga qaratilgan maqsadiga putur ham yetkazishi mumkin²⁰. Chunki, jinoyat huquqi kabi ta'sir ko'rsatuvchan vositalar boshqa huquq sohalarida kamroq rivojlangan. Demak, shuni aytish mumkinki, bu tamoyil haqida ham olimlar o'rtasida ilmiy bahs-munozaralar mavjud.

Nazarimizda, jinoyat huquqida jazo choralarining o'g'ir yoki yengilligi emas balki jazoning muqarrarligi muhim ahamiyatga ega. Chunki, jazo tizimi qanchalik mukammal bo'lmasin, ideal darajada qo'llash imkoni bo'lmasa bu tufayli jinoiy jazodan ko'zlangan maqsadga va himoya kuchiga zarar keltirilishi mumkin. Shu bilan birgalikda, jinoyat huquqidan huquqbuzarga nisbatan jazo chorasini belgilovchi vosita sifatida emas balki shaxsga nisbatan qizil chiroq bo'lib xizmat qilishi lozim. Chunki, tarixga nazar solsak,

¹⁹ Edgardo Rotman. Jazodan tashqari: jinoyatlarni rehabilitatsiya qilish bo'yicha yangi nuqtayi nazar [Beyond Punishment: A New View on the Rehabilitation of Criminal Offenders], USA, Greenwood Press, 1990, pp. 227.

²⁰ Piet van Kempen, M.Jendly. Jinoiy odil sudlov va ultima ratio prinsipi: cheklash, tahlil va ko'rib chiqish zarurati [Criminal Justice and the Ultima ratio principle: Need for limitation, Exploration and Condireration]. UK, Cambridge, Intersentia publish, 2019, pp. 49, p. 14. Available at: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3499004.



azaldan jinoyatchilikni oldini olishni yurisprudensiyaning eng asosiy vazifasi sifatida qaralgan. Xususan, Sh.Monteske o‘zining “Qonunlar ruhi haqida” deb nomlangan asarida “yaxshi qonunchi jinoyat uchun jazo berishdan ko‘ra jinoyatlarni oldini olish haqida ko‘proq qayg‘uradi, u jazolashga emas, balki odamlar axloqini o‘zgartirishga harakat qiladi²¹” deb ta’kidlagan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ultima ratio bu jinoyat huquqini chegarasini belgilab beruvchi kontitutsiyaviy norma hisoblanadi. Xorijiy davlatlar tajribasini oladigan bo‘lsak, bugungi kunda ushbu nazariy prinsip nazariy jihatdan kundan-kunga amaliyotga o‘tib kelmoqda. Bir qator huquqshunos olimlar tomonidan ushbu prinsip tadqiq etilgan bo‘lishiga qaramay, ushbu prinsip O‘zbekiston Respublikasi milliy jinoyat qonunchiligi uchun yangilik bo‘lishi mumkin. Ushbu omillarni hisobga olgan holda ultima ratio prinsipiga mualliflik tarifi ishlab chiqildi. “Ultima ratio – ijtimoiy munosabatlarga ziyon yetkazuvchi harakat yoki harakatsizlikni boshqa huquq sohalari bilan tartibga solish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda jinoyat huquqi vositalarini faqatgina oxirgi chora sifatida qo‘llash mumkinligini ifoda etuvchi huquqiy prinsip hisoblanadi”. Ultima rationining asosiy mohiyati shundaki, u boshqa huquqiy ta’sir choralari foyda bermasa yoki ko‘zlangan maqsadga erishish imkoni bo‘lmagan taqdirda jinoyat huquqi oxirgi chora – *criminalization as a last resort* – sifatida qo‘llanilishi kerak ekanligini bildiradi. Demak shuni aytish mumkinki, jinoyat huquqi yoki jinoyat qonunchiligi huquq sohalari tizimidagi eng o‘g‘ir xususiyatga va oqibatga ega huquq sohasi bo‘lishiga qaramay, jinoyat huquqining fundamental asoslarida insonparvarlik g‘oyalari mushtarak hisoblanadi.

²¹ Sh.Monteske. Qonunlar ruhi. – M. Tirilish nashriyoti. Toshkent-2024. – b.288, b 231.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dunyo aholisi haqida umumiy ma'lumot saytining ma'lumotlar bazasi [The world population review]. 2025. Available at: <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/crime-rate-by-country>.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan taqdim etilgan jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning 2024-yil asosiy ko'rsatkichlari. Available at: <https://stat.sud.uz/assets/uploads/criminal/pdf/criminal-2024-full.pdf>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" gi PF-158-son Farmoning 1-ilovasi 87-band//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.
4. Rudolf Wendt. "Ultima Ratio" tamoyili va mutanosiblik prinsipi [The principle of "ultima ratio"and/or the principle of proportionality]. Oñati Socio-Legal Series Volume 3 No. 1 (2013), p. 81-94 at 84. Available at: <https://shorturl.at/7OC6I>.
5. Salayev N.S. Classical Ideas of the Ultima Ratio Principle in the Modern Criminal Law Paradigm. Excellencia: international multi-disciplinary journal of education. Volume 02, issue 07, 2024. p 282-292. p 283.
6. Piet Hein van Kempen. Jinoyat huquqi va inson huquqlari – kirish [Introduction – Criminal Law and Human Rights], Criminal Law and Human Rights, The International Library of Essays on Criminal Law, England/USA: Ashgate, 2017, pp. 1-23 at p.1. Available at: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2953285.
7. Panu Minkkinen. Jinoyat huquqi doktrinasi va oxirgi chora [If Taken in Earnest": Criminal Law Doctrine and the Last Resort]. 45 The Howard Journal 5 (2006), pp. 521-536 at p. 525. Available at: <https://shorturl.at/DzztA>.



8. F.Sgubbi. Jami jinoyat qonuni. Qonunsiz, haqiqatsiz, aybsiz jazo [Il diritto penale totale. Punire senza legge, senza verità, senza colpa] Italiya, Il Mulino nash., 2019, p. 88, at p. 23.
9. Stojanović Z. Granice, possibilities and legitimacy of criminal protection. Beograd: Savremena administracija, 1987. 115 str.; Garland D. Kultur der Kontrolle: Verbrechensbekämpfung und soziale Ordnung in der Gegenwart. Frankfurt: Campus-Verlag, 2008. P.394; Schünemann B. Das Strafrecht im Zeichen der Globalisierung. Goldammer's Archiv für Strafrecht, 150, no. 5 (2023): 299–313; Albrecht P.-A. Spezialprävention angesichts neuer Tätergruppen. Zeitschrift für die gesamte Strafrechtswissenschaft, 97, no. 4 (2019): 831–870.
10. Tagansev N. S. Russkoe ugovnoe pravo. V 2 chastjah. Chast' 2. — Moskva.: Yurayt, 2020. — 446 s.
11. Cf. European Parliament resolution of 22 May 2012 on an EU approach to criminal law (2010/2310(INI)), Official Journal of the European Union C 264 E/7, para I. 2025. European Parliament. Available at: <https://shorturl.at/PesJh>. Rudolf Wendt. “Ultima Ratio” tamoyili va mutanosiblik prinsipi [The principle of “ultima ratio” and/or the principle of proportionality]. Oñati Socio-Legal Series Volume 3 No. 1 (2013), p. 81-94 at 86. Available at: <https://shorturl.at/7OC6I>.
12. Douglas Husak. Ultima Rationi joriy etish: shubhali baholash [Applying Ultima Ratio: A Skeptical Assessment], Ohio State Journal of Criminal Law (2005), p. 535-545 at 536-540. Available at: <https://shorturl.at/nF7R1>.
13. Panu Minkkinen. “Oxirgi chora”: axloqiy yoki huquqiy prinsipmi? [The “Last Resort”: A Moral and/or Legal Principle?], 3 Oñati Socio-legal Series 1 (2013), pp. 21-30, at p. 23. Available at: <https://shorturl.at/mpbJn>.
14. Ronald M. Dworkin. Qoidalar modeli [The Model of Rules], 35 The University of Chicago Law Review new edition, 2022, pp. 14-46 at p. 22-29.



15. H.H.Jescheck. Jinoyat huquqi bo'yicha darslik [Lehrbuch des Strafrechts: Allgemeiner Teil. 5. Auflage], Berlin, last edition by Duncker & Humblot, 2016, pp. 1029, at p. 3.
16. Moore M. Aybni belgilash. Jinoyat huquqi nazariyasi [Placing Blame: A Theory of the Criminal Law], Oxford, new edition by Clarendon Press, 2019, pp. 849, at 595-609.
<https://doi.org/10.1093/acprof:oso/9780199599493.003.0014>.
17. D.Husak. Ortiqcha krimizalizatsiya qilish: jinoyat qonunining chegaralari [Overcriminalization: The Limits of the Criminal Law]. Oxford, Oxford University Press, 2009, pp. 248, at p. 231.
18. Edgardo Rotman. Jazodan tashqari: jinoyatlarni reabilitatsiya qilish bo'yicha yangi nuqtayi nazar [Beyond Punishment: A New View on the Rehabilitation of Criminal Offenders], USA, Greenwood Press, 1990, pp. 227.
19. Piet van Kempen, M.Jendly. Jinoiy odil sudlov va ultima ratio prinsipi: cheklash, tahlil va ko'rib chiqish zarurati [Criminal Justice and the Ultima ratio principle: Need for limitation, Exploration and Condiration]. UK, Cambridge, Intersentia publish, 2019, pp. 49, p. 14. Available at:
https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3499004.
20. Sh.Monteske. Qonunlar ruhi. – M. Tirilish nashriyoti. Toshkent-2024. – b.288, b 231.